

**BENCHMARKING ASOSIDA MAHALLIY AVTOMOBILSOZLIK
SANOATINING SAMARDORLIGINI ANIQLASH VA
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING DASTURIY
TA'MINOTINI ISHLAB CHIQUISH**

Karimov Norboy G'aniyevich¹ i.f.d., professor.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi²

¹Toshkent moliya instituti "Xalqaro moliya-kredit" kafedrasida i.f.n., dotsent

Saydullayev Shaxzod Sherzodovich³

³Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi, mustaqil izlashuvchi

Annotatsiya: Maqolada mahalliy avtomobilsozlik sanoatining samardorligini aniqlash va raqobatbardoshligini oshirishning dasturiy ta'minoti hamda avtosanoat korxonalarining raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish uchun benchmarkingdan foydalanish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish uchun dasturiy ta'minotlardan qay darajada foydalanish va ularni amalga oshirish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Avtosanoat korxonalari, tahlil, monopol, raqobat, iqtisodiyot, amaliyot, benchmarking, dasturiy ta'minot, tarmoqlashgan boshqaruv, rivojlanish, optimallashtirish, rentabellik, boshqaruv tizimi, raqobatdosh mahsulot, reklama

Аннотация: В статье рассматривается программное обеспечение для определения эффективности и конкурентоспособности отечественного автомобилестроения, а также использование бенчмаркинга для повышения конкурентоспособности предприятий автомобилестроения. Также выделены масштабы использования программного обеспечения для повышения конкурентоспособности и механизмы их реализации.

Ключевые слова: Предприятия автомобильной промышленности, анализ, монополия, конкуренция, экономика, практика, бенчмаркинг, программное обеспечение, сетевое управление, разработка, оптимизация, рентабельность, система управления, конкурентоспособный продукт, реклама.

Annotation: The article examines software for determining the efficiency and competitiveness of the domestic automotive industry, as well as the use of benchmarking to increase the competitiveness of automotive enterprises. Also, the extent to which software is used to increase competitiveness and the mechanisms of their implementation are highlighted.

Keywords: Auto industry enterprises, analysis, monopoly, competition, economy, practice, benchmarking, software, networked management, development, optimization, profitability, management system, competitive product, advertising.

Kirish: Barcha jabhalarda iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitida korxonalar o‘z ustida tinimsiz mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi. Jumladan avtomobilsozlik sanoati korxonalari ham bozor kon‘yunkturasida o‘z o‘rnini saqlab qolishi uchun zamonaviy benchmarking usullaridan foydalanishiga to‘g‘ri kelmoqda. Benchmarking usulidan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida keng foydalanilsada, MDH mamlakatlariga bu usul endi kirib kelayapti. Avtomobilsozlik korxonalari qachonki o‘z mahsulotlari narxi, sifati bilan jahon bozori yetakchilari bilan raqobatlasha olish qobiliyatiga ega bo‘lsagina, ushbu tarmoq barqaror rivojlanish yo‘lida deyishimiz mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston avtosanoati mavjud bo‘lgan davlatlar sarasiga kiradi.

Odatda nazariy jihatdan mahsulotlar narxining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish evaziga sodir bo‘ladi. Bu esa mahsulotlarning sifatini ham pasaytirgandek ma’no kasb etadi. Ammo, har doim ham bunday emasligini zamonaviy iqtisodiyot allaqachon tasdiqladi.

Mamlakat avtomobil sanoati korxonalarining monopolistik tendensiyalarini rivojlantirishiga yo‘l qo‘yish kerak emas va davlat tomonidan mahalliy avtosanoatni raqobatdan xolos qilmasligi kerak. Buni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

O‘zbekistonda boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning uslubiy asoslarini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda avtomobilsozlik tizimini xalqaro standartlar asosida yuritish va moslashtirish vazifasi qo‘yilgan. Ayniqsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini ta‘minlashda buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo‘lgan boshqaruv hisobining mavqei tobora oshib bormoqda, chunki u samarali boshqarish qarorlari qabul qilish uchun zaruriy axborot olishga imkon beradi. Samarali tashkil etilgan boshqaruv tizimi korxonada faoliyatida muhim o‘rin egallaydi.

Lekin, unga qo‘yilgan yuqori talablarga javob berish uchun korxonada boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish va baholash kerak. Shunda tarmoqda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqiladi va tarmoq raqobatbardosh bo‘ladi. Shuni qayd qilish kerakki, avtomobilsozlik korxonalarida hozirgi paytgacha boshqaruv tizimi samaradorligini baholash, uni o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish, baholash mezonlari tizimini shakllantirish va boshqa shu kabi masalalarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar bir tizimga solinmagan, ularning samarasi yetarli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-sonli «**Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini**

oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risi- da»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli «2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»gi, *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28-iyuldagi 207-sonli «Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida»gi* Qarori hamda faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda ko‘plab izlanishlar talab qilinadi.

Metadologiya: Boshqaruv tizimida benchmarkingdan foydalanish masalalari borasida xorijlik quyidagi yetuk mutaxassis-olimlar tomonidan bir qator ilmiy jihatdan asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar berganlar: A.D.Sheremet¹, S.I.Polyakova², T.V.Shishkova, Ya.M.Sokolov³, Ya.V.Sokolov, V.E.Kerimov⁴, K.P.Yankovskiy⁵. Tadqiqotlar doirasida ushbu olimlarning ishlari atroflicha va tanqidiy nuqtai-nazardan o‘rganib chiqildi.

Tadqiqot yo‘nalishi borasida faoliyat yuritgan quyidagi xorijlik olimlarni alohida e‘tirof etish kerak: A.Apcherch⁶, K.Druri⁷, B.Nildz⁸, X.Anderson, D.Kolduell, G.Anthony⁹, S.Christopher¹⁰.

Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida boshqaruv va uning ayrim soha hamda muammolariga bag‘ishlangan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar chop etilgan. Bular jumlasiga A.A.Abdug‘aniyev¹¹, M.K.Pardayev¹²,

¹ Шеремет А.Д., Николаева О.Е., Полякова С.И. Управленческий учет. –М.: ИД ФБК-Пресс, 2005. –344 с., Управленческий учет: официальная терминология СИМА/Пер. с англ.

² О.Б. Николаевой, Т.В. Шишковой. –М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004. – с. 155,

³ Соколов Я. В. Управленческий учет: учебник / Я.В. Соколов. СПб.: Магистр, 2015. – 455 с.,

⁴ Керимов В. Э. Управленческий учет на предприятиях розничной торговли / В.Э. Керимов, Е.В. Иванова, Р.А. Сухов. –М.: Экзамен, 2016. - 160 с.

⁵ Янковский К.П. Управленческий учет / К.П. Янковский, И.Ф. Мухарь. –М.: Книга по Требованию, 2017. - 368 с.

⁶ Апчерч А. Управленческий учет: принципы и практика/Алан Апчерч. - М.: Финансы и статистика, 2017. –952 с.,

⁷ Друри К. Управленческий и производственный учет. Учебник. / К.Друри. – М., ЮНИТИ, 2015. –1423 с.,

⁸ Нидлз Б. Принципы бухгалтерского учета/ Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл; под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 1993. – 496 с.,

⁹ Anthony, G. Hopwood Handbook of Management Accounting Research / Anthony G. Hopwood. – М.: Наука, 2016. – 280 с

¹⁰ Christopher, S. Chapman Handbooks of Management Accounting Research 3-Volume Set,1-3 / Christopher S. Chapman. – М.: ИЛ, 2015. – 774 с

¹¹ Абдуганиев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш ҳамда юритишнинг назарий ва амалий асослари: и.ф.д. дис. автореф. – Тошкент: 2015. – 41 б.,

¹² Pardayev M.K. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. i.f.d.diss.–Т., 2012.– 383 б.,

O.M.Jumanov¹³, A.X.Pardayev¹⁴, A.K.Ibragimov¹⁵, B.A.Xasanov¹⁶, O.Bobojonov¹⁷, D.U.Mamadiyarov, B.T.Eshnayevlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Mazkur mualliflarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatimizda boshqaruv hisobining tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Lekin ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar benchmarking asosida mahalliy korxonalarining raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishda biron bir jihatini takomillashtirishga (asosan, boshqaruv hisobining nazariy, uslubiy muammolari, korxonaning ayrim faoliyat va sohalari) bag‘ishlangan bo‘lib, ayrim olingan korxonada boshqaruvda benchmarkingni tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va ularni ijobiy yechish masalalari batafsil ko‘rib chiqilmagan.

Avtomobilsozlik korxonalarini o‘z ishini yaxshilash uchun kompaniyaning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, tushinish va moslashtirishi lozim. Namuna sifatida mana shu sohaning bir nechta yetakchilarining taraqqiyot yo‘li o‘rganilishi va xulosa chiqarilishi lozim. Shunda o‘z imkoniyatlariga oqilona baho berish imkoniyati bo‘ladi. Namuna sifatida olingan korxonalarining ish uslublari taqqoslanib ma’qul jihatlarni korxonada o‘z faoliyatida qo‘llashi mumkin. Sinovlarga asoslangan qiyosiy tahlil strategik yo‘naltirilgan marketing tadqiqotining yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

1972 yilda AQSHda tadqiqot va konsalting markazlari korxonalar samarali yechim uchun o‘zi kabi korxonalarining o‘xshash sharoitlardagi muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini ularning eng yaxshi amaliyotlaridan namuna olish kerakligini tadqiq qilishdi. 1979-yilda ma’lumki Amerika kompaniyasi Xerox Yaponiyaning huddi shunday kompaniyalari bilan taqqoslanganda o‘z mahsulotlarining narxini va sifatini tahlil qilish uchun Benchmarking Competitiveness loyihasini ishga tushirgan. Loyiha muvaffaqiyatga erishdi. Benchmarking ko‘rsatkichlar asosida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini aniqlaydi.

Korxonaning faoliyatini baholashning quyidagi turlari mavjud:

- raqobatli qiyoslash;
- ichki qiyoslash;
- funksional qiyoslash;
- benchmarking jarayoni.

¹³ Jumanov O. Boshqaruv hisobi: Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning tajribasi (Ruschadan mualliflashtirilgan tarjima). – T., 2011. – 152 b.,

¹⁴ Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Darslik //Boshqaruv hisobi. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 556 b.,

¹⁵ Ибрагимов А. Как учитывать затраты в сельском хозяйстве // Рынок, деньги и кредит. – Ташкент, 2000. – №2. – С.60-63.,

¹⁶ Xasanov B.A. Boshqaruv xisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. – T., 2004. – 345 b

¹⁷ 18. Bobojonov O., Eshnayev B.T. Boshqaruv hisobi va mahsulot ishlab chiqarish tannarxining tahlili. i.f.n. diss. – T.: 2006. – 23 b.

Raqobatli qiyoslashda jarayon yoki ma'muriy usullarning imkoniyatlari raqobatchilarniki bilan solishtiriladi.

Ichki qiyoslashda ishlab chiqarish birliklarining xarakteristikasi tashkilot ichidagi o'xshash biznes jarayonlar bilan solishtiriladi.

Funksional qiyoslash bir xil sektorda ikki yoki undan ortiq tashkilotning ayrim funksiyalari solishtiriladi.

Benchmarking jarayoni muayyan jarayonlarning ko'rsatkichlari o'xshash jarayonlarning eng yaxshi xususiyatga ega bo'lgan korxonalar bilan taqqoslanadi.



1-rasm. Benchmarking tahlil olib borishning bosqichlari¹⁸

AQSHlaridagi XEROX (nusxa ko'chirish uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonasi) korxonasining ulushi 1980 yillarda 80%dan 40%gacha kamayib ketgan. Bunga Yaponiyaning Canon va Minolta firmalarining kuchli raqobati sabab bo'lgan. Mana shunda "benchmark test" loyihasi amalga oshirilgan. Buning uchun albatta raqobatchilarning mahsulotlari batafsil ko'rib chiqilgan. Ammo bu solishtirishdan ular o'zlaridagi kamchilikni sezishmagan. Shuning uchun qiymat zanjirining barcha jarayonlari o'rganilib logistika va sotish jarayonlaridagi kamchiliklar aniqlangan. Raqobatchilarning bir nechta usullari tanlab olinib muvaffaqiyatli amalga oshirilgan va ishlab chiqarish xarajatlarini 50%ga, mahsulotlarni so-tishga sarflanadigan vaqt esa 66%ga qisqartirishga erishildi.

"**Benchmark**" ingliz tilida marka yoki tasdiqlash punkti degan ma'nolarni beradi. Nazariy jihatdan aniq bir konseptual apparat hali shakllanmagan. Shuning uchun har bir soha vakillari tadqiqotlarida turlicha sharhlaydi.

Benchmarking avto sanoat korxonalarida bizning fikrimizcha, eng yaxshi amaliyot namunalarini izlash va ularni o'z amaliyotida qo'llashdir.

Ford avtomobil kompaniyasining avtosanoat korxonalariga namuna bo'ladigan tomonlari ko'pligi ma'lum. O'tgan asrning 90-yillaridayoq bozordagi mavqeni ko'tarish maqsadida taqqoslash ishlari olib borilgan. Kompaniyaning mutaxassislari har bir mahsulotning afzalliklarini o'rganish va iste'molchilar afzal ko'rgan modellarni aniqlash maqsadida ko'plab avtomobil modellarini o'rganishdi. Har bir mezon uchun

¹⁸ Muallif ishlanmasi

o‘z sinfidagi eng yaxshi avtomobil aniqlandi, buning asosida eng yuqori stavkadan oshib o‘tishga imkon beruvchi strategiya ishlab chiqildi. Natijada kompaniyaning mahsulotlari "Yil mashinasi" nomini olgan.

Shunday davrlar bo‘lganki sekin-asta ko‘tarilgan cho‘qqidan pasga siljish holatlari kuzatildi. Kompaniya boshqaruvi, natijada, taqqoslash jarayoni doimiy jarayon bo‘lib, uni bir mar talik jarayon deb hisoblash mumkin emas, degan tushunchaga keldi. Xulosa qilib aytganda, taqqoslash sizning raqobatdosh kompaniyan- giz faoliyati sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishganligi sababini aniqlash imkonini beradi, bu harakatlar ijobiy natijaga olib keladi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning faqat bittasini tahlil qilish kompaniyaning faoliyati haqida to‘liq tasavvurga ega qilmaydi. Benchmarking MDH davlatlarining ishbilarmon doiralarida yangi ibora. Avvaliga, ko‘pchilik bu konsepsiya sanoat josusligini xarakterlaydigan taassurot qoldirdi, biroq aslida bu ikki jarayonni ajratib turadigan muhim farqlar mavjud.

Benchmarking – boshqa bironing tajribasini o‘rganishdir, bu biznesingiz uchun qo‘shimcha mezonni tanlashga va o‘zingizni sinov va xatolardan himoya qilishga imkon beradi. Biznesni olib borishning ushbu usuli 1972 yilgacha ishlab chiqilgan, ammo maqsadli ravishda 1980 yillarning oxirlarida qo‘llanila boshlangan.

Qisqacha aytganda, taqqoslash boshqa kompaniyani yoki boshqalardan muvaffaqiyatli bo‘lgan boshqa ishni qidirishdir. Shunda faqatgina uning firma ishining holatini yaxshilashga doir savolga javob topish mumkin.

Hozirgi kunda deyarli har qanday bozorda shafqatsiz raqobat mavjud bo‘lib, bu biznesingizni xohlagan tarzda shakllantirishingizga yo‘l qo‘ymaydi. Bir daqiqaga chalg‘itishga hech qanday imkoniyat yo‘q, chunki kompaniya tezda bozordan chiqib ketishi mumkin. Raqobatchilarning harakatlarini to‘g‘ri tahlil qilish kompaniyaning ko‘rsatkichlarini yaxshilashning eng muvaffaqiyatli usullaridan foydalanishga imkon beradi.

Ekspertlar benchmarkingning 5 ta asosiy bosqichga ajratadilar:

- *Kompaniyada optimallashtirishni talab qiluvchi faoliyat yo‘nalishlari va funksiyalarini aniqlash;*
- *Faoliyat sohasidagi eng yaxshi kompaniyalarni izlash va tanlash;*
- *O‘z kompaniyasining ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;*
- *Tashqi tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish;*
- *Olingan ma‘lumotlarning solishtirilishi va ularning natijalarini yaxshilash uchun natijalardan foydalanish.*

Korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun shakllantirilayotgan va taqdim etilayotgan ma‘lumotlar tizimi ana shu keltirilgan barcha talablarning qanchalik qismiga javob berayotganligini, qoniqtirganligini doimo baholab borishi, o‘zgarishini kuzatib turishi lozim.

Jadval

Benchmarking asosida mahalliy avtomobilsozlik sanoatining raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishda ma’lumotlarining shakllanish mezonlari¹⁹

№	Mezonlar	Mazmuni
1.	Qisqalik	<i>Ma’lumot aniq va qisqa bo‘lib, ortiqcha narsalarga ega bo‘lmasligi kerak</i>
2.	Aniqlik	<i>Foydalanuvchi ma’lumot xato va kamchiliklarga ega emasligiga ishonch hosil qilishi va ma’lumot har qanday almashishlardan xoli bo‘lishi lozim.</i>
3.	Tezkorlik	<i>Ma’lumot zarur, ya’ni kerak bo‘lgan vaqtda tayyor bo‘lishi lozim</i>
4.	Mos kelishlik	<i>Ma’lumot vaqt va bo‘limlar bo‘yicha mos kelishi lozim</i>
5.	Maqsadlilik	<i>Ma’lumot qanday maqsad uchun tayyorlangan bo‘lsa shunga to‘g‘ri kelishi kerak</i>
6.	Rentabellik	<i>Ma’lumotning tayyorlanishi undan foydalanish natijasida keladigan</i>
7.	Noan’anaviylik	<i>foydasidan qimmatga tushib ketmasligi kerak</i>
8.	Manzillilik	<i>Ma’lumot taxminlardan xoli tarzda tayyorlanishi va taqdim etilishi lozim</i>
9.	Raqamlilik	<i>Konfidensiallik saqlangan holda ma’lumot ma’sul bajaruvchigacha</i>

Agar ma’lumotlar jadvalda berilgan mezonlardan kamida 3 tasi bo‘yicha ijobiy xarakteristikaga ega bo‘lmasa, bu mazkur korxonada boshqaruv tizimini qayta tashkil etilishi kerakligini bildiradi.

Benchmarking ayniqsa Yevropada va Amerikada keng tarqalgan, MDH davlatlarida esa barcha kompaniyalar ushbu usuldan to‘liq foydalanishga tayyor emas. Buning sababi shundaki, ko‘pgina kompaniya direktorlari va ularning rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan rahbarlari chet yel firmalarining misolidan foydalanish mumkin emasligiga ishonishadi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi

2019 yildan buyon mamlakatimizda 2023 yilga qadar milliy avtosanoatni tezkor sur'atlarda rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi joriy qilingan. Uning doirasida UzAuto Motorsda qiymati 427,7 million dollarga teng investitsion loyiha amalga oshiriladi. Uning asosida 2022 yilda korxonada Amerikaning General Motors konserni tomonidan ishlab chiqilgan eng yangi GM GEM platformasida seriyali avtomobil ishlab chiqarish tashkil etiladi.

UzAuto Motors 2021 yil yakunlariga ko'ra 235 000ta avtomobil ishlab chiqardi. Agar Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari ko'ra, O'zbekiston sanoati qayta ishlash sohalari tuzilmasida avtosanoat ulushi 2021 yakunlari bo'yicha 8,5%ga yetgan. 2020 yilda aynan UzAuto Motors hissasiga respublika milliy yalpi ichki mahsulotining 4,5%i, ya'ni 57,7 mlrd dollardan 2,6 mlrd dollar to'g'ri kelgan. 2021 yilda UzAuto guruhi korxonalarida 27 ming nafardan ziyod odam ishlagan – bu mamlakatning eng yirik ish beruvchilaridan biri. 2022 yil yakuniga qadar esa UzAuto Motors Asaka va Xorazmdagi zavodlarida avtomobil ishlab chiqarish hajmlarini 275 mingta avtomobilgacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Mashinasozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida 2015- 2019-



yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining 80 dan ortiq yangi turi o'zlashtirildi.

2019-yilda Mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 6145,8 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'sish 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobarni, import o'rnini bosish samaradorligi 2,1 milliard dollarni tashkil qildi. 2018-yilda mahalliy

xomashyo resurslarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash va tayyor iste'mol mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish tarmoqlari evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

Xususan, to'qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 111,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 110,8 foiz, farmatsevtika mahsulot va preparatlari 123,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 129,7 foiz, boshqa noruda meneral mahsulotlar 113,8 foizga oshdi. Sanoatni, xususan mashinasozlik sanoatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari

dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YaIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi.

Xulosa: Avtomobillarning yangi modellarini ishlab chiqishda benchmarkingdan foydalanish yaxshi samara beradi. Mamlakatimizda avtosanoat mahsulotlari eksportini oshirish uchun ham raqobatdosh avtosanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tizimli yo'lga qo'yish talab qilinadi. Ishlab chiqarishdan tortib, savdo va servis xizmatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, maqsadli va manzilli tashkil etish orqali sifatni nazorat qilish, iste'molchilarda mahsulotga bo'lgan ishonchni oshirish, shaffoflik masalalariga ham e'tibor qaratish lozim.

Mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o'z xususiyatlariga ega. Bular asosan ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar va boshqalar. Biz shuni hisobga olgan holda mashinasozlik tovarlari bozorida korxonaning ulushini kengaytirish yoki mavjud mavqeini saqlab qolish bir muncha murakkab jarayondir:

a) yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bu o'rinda ishlab chiqarish vositalarining to'liq zmonaviylashtirilishi, nau-xou va patentlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish nazarda tutiladi;

b) sotishni tashkil qilish, bu o'rinda korxonaning sotish kanallari mavjudligi, kadrlar malakasi, vositachilar, yarmarka va ko'rgazmalarda ishtirok etish, xorijiy mamlakatlarda savdo uylari tashkil qilish, ularni konsingatsiya shartnomalari asosida tovarlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish;

c) servis xizmati ko'rsatishni yo'lga qo'yish, mashina va uskunalarni o'rnatish, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash, ishchilarni o'qitish, uzoq muddatli kafolatli xizmat ko'rsatish;

d) reklamani amalga oshirish, reklama iste'molchi uchun kurash qurolidir, samarali reklamani yo'lga qo'yish, reklama vositalaridan keng foydalanish, buklet va kataloglar tuzish, maxsus oynoma va ro'znomalarda reklamani doimiy ravishda berib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шеремет А.Д., Николаева О.Е., Полякова С.И. Управленческий учет. –М.: ИД ФБК-Пресс, 2005. –344 с., Управленческий учет: официальная терминология СИМА/Пер. с англ.
2. О.Б. Николаевой, Т.В. Шишковой. –М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004. – с. 155,
3. Соколов Я. В. Управленческий учет: учебник / Я.В. Соколов. СПб.:

- Магистр, 2015. – 455 с.,
4. Кондратова И.Т. Основы управленческого учета. – М.: Финансы и статистика, 1999. – 144 с.,
 5. Керимов В. Э. Управленческий учет на предприятиях розничной торговли / В.Э. Керимов, Е.В. Иванова, Р.А. Сухов. –М.: Экзамен, 2016. - 160 с.
 6. Янковский К.П. Управленческий учет / К.П. Янковский, И.Ф. Мухарь. –М.: Книга по Требованию, 2017. - 368 с.
 7. Друри К. Управленческий и производственный учет. Учебник. / К.Друри. – М., ЮНИТИ, 2015. –1423 с.,
 8. Апчерч А. Управленческий учет: принципы и практика/Алан Апчерч. - М.: Финансы и статистика, 2017. –952 с.,
 9. Anthony, G. Hopwood Handbook of Management Accounting Research / Anthony G. Hopwood. – М.: Наука, 2016. – 280 с
 10. Christopher, S. Chapman Handbooks of Management Accounting Research 3-Volume Set,1-3 / Christopher S. Chapman. – М.: ИЛ, 2015. – 774 с
 11. Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш ҳамда юритишнинг назарий ва амалий асослари: и.ф.д. дис. автореф. – Тошкент: 2015. – 41 б.,
 12. Pardayev M.K. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. i.f.d.diss.–Т., 2012.– 383 б.,
 13. Jumanov O. Boshqarish hisobi: Iqtisodi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi (Ruschadan mualliflashtirilgan tarjima). – Т., 2011. – 152 б.,
 14. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Darslik //Boshqaruv hisobi. – Т.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 556 б.,
 15. Ибрагимов А. Как учитывать затраты в сельском хозяйстве // Рынок, деньги и кредит. – Ташкент, 2000. – №2. – С.60-63.,
 16. Xasanov B.A. Boshqaruv xisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. diss. – Т., 2004. – 345 б
 17. Bobojonov O., EshnayeV B.T. Boshqaruv hisobi va mahsulot ishlab chiqarish tannarxining tahlili. i.f.n. diss. Т.: 2006. – 23 б.